XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2022 - yil 31 - dekabr VI-69-199-8-111-K/22 Denov tuman hokimligi

Denov tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarini belgilash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining
2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son qaroriga asosan xalq deputatlari Denov tuman **Kengashi qaror qiladi:**

1. Denov tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2022-yil 29-noyabrdagi 01-07/33-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Denov tumanidagi mahallalar chegaralari chizmalari va tavsifi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ta’kidlansinki:

mahallalar chegaralarini belgilash jarayonida har bir mahalla bo‘yicha chegaralar tavsiflanadi;

chegaralar tavsifida ular bo‘yicha chegara belgilanadigan ko‘chalar, tabiiy va sun’iy obyektlar nomlari, chegaralar yo‘nalishi keltiriladi;

mahallalar chegaralari chizmalari va tavsifini tayyorlash shahar hokimligining topshirig‘i bo‘yicha mahallalari fuqarolar yig‘inlarining iltimosnomalari asosida Kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Denov tuman filiali tomonidan o‘n besh kun mobaynida mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga amalga

oshiriladi.

4. Denov tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (B. Abdurayimov), tuman moliya bo‘limi (A.Muxammadiyev) zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

5. Kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi Denov tuman filiali (T.Ismoilov):

tuman hududidagi chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarida ko‘chalarni davlat reyestri elektron bazasiga kiritish ishlarini amalga oshirsin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (I.Yusupov):

tuman hududidagi chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarida yashovchi fuqarolarni qayta ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

7. Tuman hokimligi Axborot xizmati (F.To‘rayeva), “Chag‘oniyon” gazetasi tahririyati (S.Mamajonov)ga ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini ta’minlasin.

8. Ushbu qarorning ijrosininazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Ch.Murodov) va tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i M.Rasulov zimmasiga yuklansin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.Allamuradov**

Xalq deputatlari Denov tuman
Kengashining
2022 yil 31 dekabrdagi
VI-69-199-8-111-K/22-son
qaroriga
1-ilova

